



FUMARIA PARVIFLORA (SHOTARA) O'SIMLIGINING DORIVORLIK XUSUSIYATLARI.

Yursunova O'g'iloy Mamitali qizi

Farg'ona Davlat Universiteti biologiya yo'nalishi 1-kurs talabasi

Annotasiya: Ushbu maqola *Fumaria parvifloraning* xususiyatlari uning turlari ekologik yashash sharoiti farmologik xususiyatlari va olinadigan alkaloidlar haqida malumotlar keltirilgan.

Kalit so'zlar: *Fumariaceae*, *shotara*, *pitpapa*, *homaira*, *kshetra*, *fenolik efir glikozid*, *perfumidingudidin.ildizi*, *gullari*, *barglari*, *shoxlanishi*.

KIRISH

Mamlakatimizda o'ziga xos dorivor o'simlik turlari o'sadi ularning har birini kasalliklarning oldini olish uchun, shuningdek, oziq-ovqat, atir-upa va kosmetika sanoatida ishlatiladigan o'simliklar giyohlar tayyorlashda o'z o'rniga ega. Yer yuzida dorivor o'simliklarning 10—12 ming turi borligi aniqlangan. 1000 dan ortiq o'simlik turining kimyoviy, farmakologik va is xossalari tekshirilgan. O'zbekistonda dorivor o'simliklarning 700 dan ortiq turi mavjud. Shulardan tabiiy sharoitda o'sadigan va madaniylashtirilgan 120 ga yaqin o'simlik turlaridan ilmiy va xalq tabobatida foydalaniladi. Hozirgi davrda tibbiyotda qo'llaniladigan dori-darmonlarning qaryib 40—47% o'simlik xom ashyolaridan olinadi. Bizning o'rgangan dorivor o'simliklarimizdan biri bu *Fumaria parviflora* o'simligi hisoblanadi. Ushbu o'simlikni qadim zamonlardan beri foydalanib kelmoqda xalqimiz. Mana shunday dorivor o'simliklarni saqlab qolish ham yo'q qilib yuborish ham albatta bizga ya'ni insonlar jamoasiga bog'liq bo'lgan jarayondir.

Botanik tavsifi

Fumaria parviflora o'simligi yer yuzida keng tarqalgan bir yillik o'simlik hisoblanadi. O'simlik poyasining uzunligi 20-30 sm gacha boradi. Poyadan chiqan shoxchalarning uzunligi esa 6-7 sm hisoblanadi. O'simlikning barglari asosan och yashil rangli bo'lib mayda bargchalardan tashkil topgan. Barg tuzilishiga ko'ra murakkab barg hisoblanadi. *Fumaria parviflora* ushbu o'simlikning poyasi asosan tik holda o'sadi bazi holatlarda yonboshlab o'suvchi o'simlik hisoblanadi. O'simlikning barglari navbatma-navbat joylashgan ko'k-yashil rangli filiform segmentli bo'ladi. Poyasi soxta dixatamik shoxlangan ya'ni bunda uchki kurtak gullash bilan tugallanadi yoki qurib tushib ketadi. O'rnida iz qoladi uning ostida qarama-qarshi joylashgan ikkita kurtak bir vaqtda o'sib ayri hosil qiladi. Shundan so'ng yangi novdalar ham yana shunday shoxlanadi. Barglari ildiz bo'g'zida joylashgan ko'plab bo'laklarga bo'lingan bo'ladi. O'simlikning gullari cho'zilgan bo'lib, uzunligi 6-8mm, pushti binafsha rangda, to'pguli esa shingilsimon to'pgulga yig'ilgan. Gullari ikki tomonlama nosimmetrik (zigomorf) bo'ladi. Gultojbarglari



ikkita tashqi va ikkita ichki barglardan iborat. Aprel -may oylaridan gullay boshlab oktabrgacha gullab meva beradi. Mevasi avgust oyidan boshlab pisha boshlaydi. Mevasi yaxlit bo'ladi. Ular ikki labli va shoxli bo'lib, gulbarglarning to'rtidan bir qismiga cho'zilgan. O'simlik odatda 20 dan ortiq va 60 tagacha gul hosil qiladi. Mevasi bitta urug'dan iborat achendir. U taxminan sharsimon shaklda bir oz kengroq va apikal tirqishli bo'ladi. Ildiz tizimi o'simlik tupiga qarab yerga chuqur kirib boradi. Ushbu o'simlik ildizi o'q ildiz tizimli asosiy o'q ildizning uzunligi 14 sm dan 20 sm boradi. Qo'shimcha ildizlari yani asosiy ildizdan chiqan ildizchalarning uzunligi esa 7.8 sm, yon ildizlari har xil 2-3 sm boladi. O'simlik ildizi quritilib kuydiriladigan bo'lsa o'zidan badbo'y hid tarqatishi tajribalar yo'li bilan aniqlangan.

Shotaradoshlar oilasi (*Fumariaceae*) Ko'knornamolar qabilasi (Papaverales) vakili hisoblanadi. Bu qabila hozirgi sistematik tahlilga ko'ra uchta: Ko'knordoshlar (*Papaveraceae*), Nashadoshlar (*Cannabaceae*), Shotaradoshlar (*Fumariaceae*) oilalarini o'z ichiga oladi. Ushbu o'simligimiz Shotaradoshlar oilasi, Shotora turkumi vakilidir. Shotaradoshlar oilasi (*Fumariceae*) 17 ta turkumga mansub 470 ta turni o'z ichiga oladi.

Xususiyatlari .

Fumaria parviflora — butun dunyoda tarqalgan bir yillik o't. An'anaviy ravishda turli xil kasalliklarda katta ahamiyatga ega. Turkiya xalq tabobatida gepato-biliar disfunktsiyaga qarshi qo'llaniladi va Erondan olib kelinadi. Charaka va Sushrutada isitma, qon kasalliklari, surunkali teri kasalliklari, siydik yo'llari kasalliklari va yo'talni davolash uchun tavsiya etiladi. Spektral ma'lumotlar tahlili va kimyoviy reaksiyalar asosida ajratilgan birikmalarning statsionar fazasi va tuzilishi aniqlanganligi sababli birikmalar silikagel (60-120 mesh) yordamida ustunli xromatografiya yo'li bilan o'simliklarning metanolik ekstraktidan ajratildi. *Fumaria parviflorada* o'tkazilgan fitokimyoviy tadqiqotlar flavonoidlar, glikozidlar, taninlar, saponinlar, steroidlar, triterpenoidlar, fenollar va fumarofitsin, kriptopin, sinaktin, stilopin, bikukulin, adlumin, perfumidingudidin, alkaloidlar kabi alkaloidlar mavjudligini aniqladi

Kimyoviy Tarkibi .

O'simlikning gullagan vaqtidagi yerustki qismi dorivor xomashyodir. Barglarining hidi yo'q, ammo achchiq va sho'r tami mavjud. Yerustki qismida 0,69-0,76% alkaloidlar, C vitamini, Flavanoidlar, izoviteksin, rutin, fitosterollar, organik kislotalardan fumarik kislota uchraydi. Dorivor Shotara (*Fumaria officinalis*) quyidagi fenolik kislota va flavanoidlardan: sinarin, ferul, izoxlorogen, xlorogen, kofein kislotalar, izoviteksin, izokersitrin uchrashi aniqlangan. Alkaloidlardan: protopin, kriptopin, stilopin, skulerin, radikulit, fumarifitsin, kriptokavin, Nmetilgidrastinlar topilgan.

Ishlatilishi.



Qadimdan asosan an'anaviy tibbiyotda O'rta yer dengiziga yaqini mamlakatlarda foydalanilgan. Hozirgi kungi ilmiy tadqiqotlar natijalari bu o'simlikni ilmiy tibbiyot uchun muhim hisoblandi. Bolgariyada xalq tabobatida gepatit (sariq) kasalligini davolashda, terida paydo bo'lgan yaralar, toshmalar uchun foydalaniladi. Tibbiyotda Gemeopatiyada (bunda sog'lom kishida muayyan kasallik belgisini keltirib chiqarishi mumkin bo'lgan dorilarning kichik dozasi bilan bemorlarni davolash), o't pufagi yo'llari va oshqazon ichak faoliyati buzilishi bilan og'riqan bemorlarni davolashda, ich qotishi, sistit, va bir qancha infeksiya haydovchi vosita sifatida ishlatiladi. Tutunli ekstraktlar (ko'knordoshlar oilasining vakillarida ishlatiladigan kabi) o't yo'llarini bo'shatishda foydali tasir ko'rsatadigan faol moddalarni o'z ichiga olganligi aniqlangan, bundan tashqari mahsulot spazmlarni yo'qotadi va o't suyuqligi ajralishini tartibga soladi. O't pufagining o'tkir va surunkali kasalliklarida ushbu o'simlik ekstraktlarini tavfsiya etish mumkin. Ushbu ekstraktlar tasirida qorinning yuqori qismidagi og'riqlar yo'qoladi, istemol qilingan ozuqa yaxshi so'riladi, ko'ngil aynishi, qusish va bosh og'rig'i yo'qoladi. Sanoatda jun mahsulotlarini rangini sariq rangga bo'yashda ham keng foydalaniladi .

ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Sharobitdinovich, T. K., Ravshanovich, O. R. I., & Baxtiyarovna, U. F. (2022). LIPA O 'SIMLIGINING MORFOLOGIYASI VA FIZIOLOGIYASI, FARG'ONA SHAHAR FLORASIDAGI AHAMIYATI. *Farg'ona davlat universiteti*, (5), 63-63.
2. Ravshanovich, O. I. THE WORLD OF PLANTS IN THE URBAN FLORA OF FERGANA CITY.
3. Хазанович Р.Л., Алимходжаева Н.З., Курс лекций по фармакогнозии с основами биохимии лекарственных растений, Ташкент "Медицина" УзССР, 1987.
4. Муравьева Д.А., Фармакогнозия, учебник, М.Медицина, 1991 И.Э.Акопов, Валенейшие отечественные лекарственные растения и их применение, -Т.Медицина, 1986.
5. Государственная фармакопея СССР: вып. 1,2 общие методы анализа лекарственное-растительное сырьё, мз СССР. - 11 - е изд., доп. - М: Медицина, 1987, 1989
6. Абу Али Ибн Сино, Тиб қонунлари, II - китоб, Тошкент 1982.

